

Toshkent shahridagi Turin Politehnika Universitetida innovatsion onlayn ta'lim platformasi ishga tushirildi

Yurtimizda onlayn ta'lim sifatini yaxshilash hamda professor-o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro onlayn muloqot muhitini shakllantirish maqsadida innovatsion onlayn ta'lim platforma foydalanuvchilarga qulay (user-friendly) shaklda yaratildi. Tizimda ortiqcha funksiyalar kiritilmagan bo'lib asosan universitet ma'muriyati o'quv jarayonini avtomatik boshqarishi uchun dars jadvali, talabalarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari, davomat hisoboti, diplom ilovalari tizimda avtomatik tarzda shakllantiriladi. Shuningdek, tizimda imtihonlarni shaffof tarzda o'tkazilishi uchun juda muhim funksiyalar integratsiya qilingan bo'lib, talabalarni video kuzatuv va mikrofon orqali barcha harakatlari avtomatik tarzda nazorat qilinadi, agar talaba tomonidan ko'chirmachilik yoki aldashga urinish bo'lsa, o'sha vaqtdagi video yozuvlar tizimda aks ettiriladi.

Ushbu platforma yordamida talabalar global Internet tarmog'iga ulanish imkoniyati bo'lmasa ham TAS-IX tarmog'ida onlayn tarzda darslarda ishtirok etishlari mumkin. Onlayn ta'lim platforma xavfsizlik nuqtai nazardan juda yaxshi ishlab chiqilgan bo'lib, faqatgina fanga ro'yhatdan o'tgan talabalarga ishtirok etishga ruhsat beradi, professor-o'qituvchiga talabalarni darslarda faol ishtirokini nazorat qilish imkoniyatini beradi. Platformaga kompyuter, telefon, planshet yordamida web interfeys orqali (qo'shimcha programmalarsiz) bog'lanish imkoniyati mavjud. Platformada o'tilgan darslarni avtomatik ravishda yozib olinadi va dars davomida o'zlashtira olmagan talabalar ixtiyoriy vaqtda qayta ko'rish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Asosiysi ushbu platformani joriy etish orqali respublikamizda joriy etilgan onlayn ta'lim tizimi uchun TAS-IX tarmog'ida ma'lumotlar almashinuvi xisobiga global Internet tarmog'i uchun sarflanadigan tezlik va xarajatlar iqtisod qilinadi.